

**SAVDO-TERMINAL USKUNALARINI RO'YXATGA OLISH BO'YICHA****_____ -sonli
ShARTNOMA**

_____ sh. "_____" _____ 202__ y.

Bank: "Orient Finans" XATB nomidan _____ -sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi _____ Amaliyot boshqarmasi/ BXM / BXO Boshlig'i / Boshqaruvchisi bir tomondan, va

Korxona: _____ nomidan _____ asosida faoliyat yurituvchi _____, ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. ShARTNOMANING PREDMETI

- 1.1.** Ushbu shartnoma to'lov terminallari bilan jihozlash va aholi bilan pul hisob-kitoblarni amalga oshirishda ularni qo'llash tartibi to'g'risidagi Nizom (2009 yil 27 iyulda Adliya vazirligida №1986 son bilan ro'yxatga olingan) hamda o'zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirish uchun Bank mijozlariga va Korxonaga qo'shma xizmatlar ko'rsatish uchun tuzilgan, buning uchun Bank Korxonaga quyidagi ko'rsatilgan shartlar bilan to'lov Terminalini (bundan buyon matnda uskunalar deb nomlanadi) ro'yxatdan o'tkazib beradi va Korxona o'z navbatida Uskunalarini ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi hamda terminaldan foydalanish yo'riqnomasiga, ushbu shartnomaning shartlariga amal qiladi va tarifga muvofiq Bank xizmatlarini to'laydi.
- 1.2.** Ushbu shartnoma, savdo terminalini ro'yxatdan o'tkazish, Korxonaning savdo nuqtalari (xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish) orqali plastik kartalar asosida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha Bank va Korxona o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

2. TA'RIFLAR

Shartnoma - ushbu Shartnoma, unga ilovalar va qo'shimchalar va har qanday yozma ko'rsatmalar, taomillar va bildirishnomalar;

Karta - bankning yoki kartalar bilan o'zaro xizmat ko'rsatish uchun bank bilan tegishli shartnomalarga ega bo'lgan boshqa tijorat banki tomonidan chiqarilgan amaldagi bank kartasi (shu jumladan korporativ);

Karta egasi - Plastik kartani to'lov vositasi sifatida taqdim etuvchi shaxs, uning Kartaga egalik huquqi SHartnoma bo'yicha Korxona uchun Bank tomonidan o'rnatilgan taomillar bilan belgilanishi mumkin;

SXKK (savdo va xizmat ko'rsatish Korxonasi) bo'yicha yo'riqnoma - Karta egalariga xizmat ko'rsatish, Bank bilan ishlash, Karta xavfsizligini tekshirish va Uskunadan foydalanish bo'yicha Korxona uchun ko'rsatmalar;

Uskuna - Karta egalariga xizmat ko'rsatish uchun Bank tomonidan Korxonaga taqdim etiladigan texnik vositalar: to'lov terminali - Kartaning to'lov qobiliyatini tekshirishga, Kartalar to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron yig'ishga va uni qayta ishlash uchun bankka aloqa vositalari orqali elektron shaklda o'tkazishga qodir bo'lgan qurilma;

Tranzaksiya - Korxona tomonidan qo'rilma va plastik karta yordamida amalga oshirilgan to'lov. Karta egasi tomonidan to'lov (Tranzaksiya) PIN-kodi bilan tasdiqlanadi.

To'lovlarni qaytarish - Korxona tomonidan amalga oshirilgan Tranzaksiya, Bank tomonidan tasdiqlangan shakl bo'yicha Karta egasining hisobvarag'i uchun belgilangan shaklda qaytarilgan mablag'lar;

Vaucher - Qaytarishga chek - agar egasi ushbu xizmat uchun Tranzaksiya amalga



oshirilgan bo'lsa va mahsulot/xizmatdan voz kechsa, Korxona tomonidan to'lovni qaytarish to'g'risida tuzilgan xabarnoma shakli;

Qog'oz nusxalari - Hisobot davrida amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun Uskunaning cheklari yoki nazorat lentasi nusxalari;

Tranzaksiyalarni qayta ishlashga yuborish - Tranzaksiyalarni Bankka qayta ishlash uchun jo'natish bo'yicha Korxona tomonidan amalga oshirilgan jarayon, Tranzaksiyalar oxirgi yuborilganidagi vaqtdan amalga oshiriladi.

Tarif - Korxona tomonidan Bank foydasiga to'lanadigan, uskunalaridan foydalanish bilan bog'liq va boshqa to'lovlar miqdori.

YUPM - BTT(Banklararo to'lov tizimi)da ishtirok etuvchi banklar bilan shartnomaviy munosabatlarga ega bo'lgan mikroprotessor kartalaridan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitob tizimining ishtirokchilari o'rtasida o'zaro axborot kliring Tranzaksiyalarni amalga oshiradigan "YAgona Umumrespublika Protssessing Markazi" (YUPM, UZCARD).

3. UMUMIY QOIDALAR

- 3.1. Korxona, Bank tomonidan ro'yxatdan o'tgan uskunalaridan foydalangan holda, karta egalari tovar yoki xizmatlar uchun to'lov uchun qabul qiladi.
- 3.2. Bank, bank kartalaridan to'lovlarni qabul qilish uchun uskunalarni UZCARD tizimida dasturlashni amalga oshiradi.
- 3.3. Korxona har kuni Tranzaksiyalarni qayta ishlashga jo'natadi va nazorat chekini va Tranzaksiyalar uchun nazorat kvitansiyasi(lenta)ni chiqaradi (Qog'ozli nusxalar).
- 3.4. Ushbu Shartnoma bo'yicha barcha hisob-kitoblar milliy valyutada amalga oshiriladi. Bank, uskunalarni ro'yxatga olish uchun to'lovni, UZCARD plastik kartalari uchun to'lov terminalidan savdo aylanma summasidan olinadigan komissiya va asbob-uskunalar bilan bog'liq boshqa to'lovlarni Bank tarfiga muvofiq undirib oladi;
- 3.5. Terminal orqali to'lovlar ikki bosqichga bo'linadi:
 - Avtorizatsiyani amalga oshirish;
 - Natijalarni taqqoslash.
- 3.6. Avtorizatsiya to'lov operatsiyalarini amalga oshirish, bekor qilish, pulni qaytarish yoki karta hisobvarag'ining qoldig'ini talab qilishda amalga oshiriladi.
- 3.7. Avtorizatsiya, agar u kartaning emitent bank tomonidan tasdiqlangan bo'lsa muvaffaqiyatli deb hisoblanadi. Bunday holda, terminalda Tranzaksiya summasi, karta egasi va Korxona ma'lumotlari, muvaffaqiyatli to'lov to'g'risida xabar (TASDIQLANGAN) va avtorizatsiya kodi bo'lgan chekning 2 nusxasi chop etiladi.
- 3.8. Avtorizatsiya kodi terminalda operatsiyani bajarishda protssessing markazida olinishi kerak. Agar Kod protssessing markazining ma'lumotlar bazasida bo'lsa, u protssessing markazida olingan deb hisoblanadi.

4. BANKNING MAJBURIYATLARI

- 4.1. Bank quyidagi majburiyatlarga ega:
 - 4.1.1. Savdo va xizmat ko'rsatish subyektlarining o'zida mavjud bo'lgan to'lov terminaliga dasturiy ta'minotni o'rnatish yuzasidan qilingan murojaat uch bank ish kuni ichida ko'rib chiqiladi va ularga tegishli dasturiy ta'minotlar o'rnatiladi.
 - 4.1.2. Korxonaning vakiliga terminaldan foydalanish qoidalarini o'rgatish.
 - 4.1.3. Keyingi ish kundan kechiktirmay Korxonaning xisobvarag'iga terminal orqali qabul qilingan xamda inkassatsiya qilingan to'lov summasini o'tkazib berish;
 - 4.1.4. Korxonaning yozma murojaatiga asosan, Bankdan, kartalar orqali amalga oshirilgan Tranzaksiyalar to'g'risida ma'lumotlarni olish;



- 4.1.5. Tranzaksiyalarni qayta ishlashga yuborish amalga oshirilganda Korxonani Stop-listning yangi versiyasi va boshqa zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash.

5. BANKNING HUQUQLARI

5.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- 5.1.1. Agar Korxona ushbu Shartnomaning 7.2-bandi shartlarini buzganda va 8.3-bandni takroran buzganda, shuningdek, agar Korxona bir oy ichida Karta orqali to'lov amalga oshirilmasa Shartnomani bir tomonlama bekor qilish;
- 5.1.2. Agar Tranzaksiya bo'yicha mablag'larni Korxonaga o'tkazish amalga oshirilgan bo'lsa, quyidagi holatlarda Tranzaksiyalar bo'yicha pul o'tkazmalarini to'xtatib turish - Tranzaksiya summasidan to'lovni qaytarib olish amalga oshiriladi, agarda:
- Tranzaksiya bo'yicha ma'lumotlar noto'g'ri, noo'rin shaklda bajarilgan bo'lsa;
 - Karta egasi Tranzaksiya bilan bog'liq da'vo bergan va ushbu talab qondirilgan bo'lsa;
 - Korxonani o'zgartirish yoki tugatish jarayoni mavjud bo'lsa. Bunday holda, to'lovlar yuridik voris masalasini tugatish komissiyasi yoki boshqa vakolatli organlar qaroriga qadar ushlab qolinadi;
 - Korxona ushbu Shartnomaning 8.3-bandida belgilangan majburiyatlarni bajarmasa.
 - Korxona "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va tijorat banklarida terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishga doir ichki nazorat" Qoidolari (Adliya vazirligida 2017 yil 23.05-kuni 2886-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) talablariga rioya etmasa.
- 5.1.3. Bankning rasmiy veb-saytida (www.ofb.uz) ma'lumot joylashtirish orqali, ushbu o'zgartirishlar kiritilishidan kamida 10 kun oldin Korxonani oldindan xabardor qilib, bir tomonlama tariflarni o'zgartirish;
- 5.1.4. Tranzaksiyalar qayta ishlashga noto'g'ri yuborilganda va Uskunadan foydalanish qoidolari buzilgan taqdirda, har qanday Tranzaksiya uchun pul to'lamaslik va ushbu hujjatlarni qayta ishlash bo'yicha barcha xarajatlarni Korxona zimmasiga yuklash;
- 5.1.5. Korxonaning hisob raqamidan, uskunalarini ro'yxatdan o'tkazish uchun yig'im, UZCARD plastik kartalari uchun to'lov terminalida savdo aylanmasining miqdoridan komissiya va bank tariflariga muvofiq boshqa to'lovlarni echib olish;

6. KORXONA MAJBURIYATLARI

6.1. Korxona quyidagi majburiyatlarga ega:

- 6.1.1. YUPM serverlariga ulanish uchun aloqa kanallari orqali to'lov terminalini ulanishini va keyinchalik UZCARD tizimidagi bank kartalariga ko'rsatilgan xizmatlar, sotilgan tovarlar va bajarilgan ishlar uchun to'lovlarni qabul qilishni ta'minlash (onlayn operatsiyalar);
- 6.1.2. balansidagi jihozlarni hisobga olish;
- 6.1.3. Bankka, uskunaning Korxonaga tegishli ekanligini tasdiqlaydigan xat taqdim etish;
- 6.1.4. Karta egalaridan tovarlarga/xizmatlarga narxlarni oshirmasdan, tovar/xizmatlar uchun naqd pul bilan bir xil shartlarda to'lovlarni qabul qilish;
- 6.1.5. har kuni ish kuni oxirida onlayn operatsiyalar natijalarini taqqoslash bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish va to'lov tizimi shartli belgisi bo'lishini ta'minlashi shart;
- 6.1.6. O'zining har bir binolarida Bank tomonidan taqdim etiladigan reklama



- belgilarini yoki boshqa materiallarni etarli darajada namoyish etish va Kartalar Korxona tomonidan to'lov vositasi sifatida qabul qilinganligini ko'rsatish uchun faqat Bank tomonidan tasdiqlangan nomlar yoki rasmlardan foydalanish;
- 6.1.7. Bank bilan Shartnoma shartlari bilan bog'liq har qanday reklama materiallarini yozma ravishda kelishib olish;
- 6.1.8. terminal cheklarining ikkinchi nusxalarini ular chiqarilgan kundan boshlab 1 yil ichida saqlash va Bankning birinchi talabiga binoan ularni 3 bank kuni ichida Bankka topshirish;
- 6.1.9. Amalga oshirilgan Tranzaksiyani tasdiqlash uchun karta egasiga kvitansiyaning bosilgan/chiqarilgan nusxasini (to'lov qaytarilganda vaucherning birinchi nusxasi) topshirish;
- 6.1.10. Shartnomaga muvofiq, xabar qilinganidan keyin 1 bank kuni ichida, Bankning Korxonadan talab qilishga haqli bo'lgan har qanday Tranzaksiyasi uchun summani bankka qaytarish;
- 6.1.11. Korxonaning manzili, jihozlarning joylashuvi va bank rekvizitlari bilan bog'liq barcha o'zgarishlar to'g'risida darhol Bankni yozma ravishda xabardor qilish;
- 6.1.12. Shartnoma muddati tugagandan yoki uni muddatidan oldin bekor qilgandan so'ng, 2 kun ichida o'zaro hisob-kitobni amalga oshirish.
- 6.1.13. To'lov terminali texnik yoki dasturiy nosoz holatga kelib qolganda, Korxona rahbari bu haqda bir kundan kechiktirmasdan davlat soliq xizmati organiga va xizmat ko'rsatuvchi bankiga yozga yoki elektron shaklda xabar berishi shart.
- 6.1.14. Korxona o'zidagi mavjud to'lov terminallarini boshqa sub'ektlarga foydalanish uchun berishi mumkin emas.

7. KORXONA HUQUQLARI

7.1. Korxona quyidagi huquqlarga ega:

- 7.1.1. Bankdan yozma ravishda amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha hisobotlarni talab qilish;
- 7.1.2. Bank xodimlaridan qo'shimcha instruktaj o'tkazish to'g'risida yozma ravishda so'rash;

7.2. Korxona quyidagilarga haqli emas:

- 7.2.1. To'lovni qaytarishda, ya'ni, Karta Egasi tomonidan mahsulot yoki xizmat rad etilganda naqd pul berish; bu holda, Korxona Qaytarish Chekini rasmiylashtirishi kerak va keyinchalik uning asosida Karta egasining karta hisobvarag'iga mablag o'tkazishi kerak;
- 7.2.2. O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq nazorat funktsiyalari bo'lgan shaxslardan tashqari boshqa shaxslarga va Korxonalarga amalga oshirilgan Tranzaksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni berish;
- 7.2.3. bir xil Tranzaksiya uchun istalgan shaklda ma'lumotlarni qayta topshirish;
- 7.2.4. mustaqil ravishda uskuna parametrlarini va konfiguratsiyasini o'zgartirish.

8. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 8.1. Shartnoma predmeti bilan bog'liq Bankka zarar etkazilgan taqdirda, Korxona o'z hisobidan zararni qoplaydi;
- 8.2. Bank quyidagilar uchun javobgar emas:
- 8.2.1. Shartnoma shartlariga javob bermaydigan yoki ularga zid bo'lgan Tranzaksiyalar uchun to'lovlarni ta'minlash;
- 8.2.2. Ushbu shartnomaning 5.1.2-bandda ko'rsatilgan sabablarga ko'ra to'lovlar kechikkanda;
- 8.2.3. Boshqa Korxonalar (YUPM) aybi bilan UZCARD tizimi faoliyatida yuzaga kelgan to'xtalishlar uchun.
- 8.2.4. Natijalarini solishtirish operatsiyasi (sverka itogov) o'z vaqtida amalga



oshirilmagani sababli, onlayn to'lov operatsiyalarini bekor qilishni shakllantirilgani uchun.

- 8.2.5. tovar (ish, xizmat va boshqalar) sotuvchisi tomonidan o'tkazilgan to'lov operatsiyasi to'g'risida hujjat yoki axborot mavjud bo'lmaganda;
- 8.2.6. tovar (ish, xizmat va boshqalar) sotuvchisi tomonidan noqonuniy harakatlar amalga oshirilgandi.
- 8.3.** Korxona qo'yidagilar uchun to'liq javobgardir:
 - 8.3.1. Tranzaksiyalarni qayta ishlashga o'z vaqtida yubormaganlik va stop-listning yangi versiyasini olmaganlik oqibatida STOPlistda turgan Kartaga hizmat ko'rsatgani uchun;
 - 8.3.2. Korxona tomonidan ushbu Shartnomaning qoidolari buzilganda, Bankka etkazilgan zarar uchun;
- 8.4.** Korxona Bankni, o'zining harakatlari/harakatsizligi va/yoki majburiyatlarni bajarishi yoki bajarmaganligi munosabati bilan qandaydir shaklda paydo bo'ladigan har qanday da'volar, mojarolar, ziyonlar, xarajatlar, sarflar, e'tirozlar va/yoki talablardan uchinchi shaxslar oldida himoya qilishga majburdir.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR.

- 9.1.** Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda, Tomonlar, ularning vakillari, xodimlari yoki vositachilari har qanday shaxslarga, bunday shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga har qanday qonunga xilof bo'lgan imtiyozlar yoxud boshqa noqonuniy maqsadida ta'sir ko'rsatish uchun har qanday shaxslarga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita to'lamaydilar, to'lovni taklif etmaydilar, har qanday pul mablag'lari va qimmatlarni to'lashga ruxsat bermaydilar.
- 9.2.** Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar, ularning vakillari, xodimlari yoki vositachilari ushbu Shartnomaning maqsadlari uchun qo'llaniladigan qonunchilikda malakalangan pora berish/olish, tijorat pora olish, shuningdek jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga doir qo'llaniladigan qonunchilik va xalqaro xujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar. (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2017 yil, 23 mayda 2886-soni bilan ro'xatga olingan).
- 9.3.** Ushbu Shartnomaning Tomonlaridan har biri boshqa Tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishidan, shu jumladan pul mablag'lari, sovg'alar, xodimning muayyan qaramlikka qo'yadigan hamda ushbu xodim tomonidan uni rag'batlantirayotgan Tomonning foydasiga biror bir ish(xizmat)ni tekin bajarilishidan bosh tortadilar.
- 9.4.** Agar Tomon har qanday korrupsiyaga qarshi shartlarning buzilishi sodir bo'lgan yoki yuzaga kelishi mumkin deb gumon qilsa, tegishli Tomon boshqa tomonni yozma yoki og'zaki ravishda ishonch telefoni orqali xabardor qilishni o'z zimmasiga oladi.
- 9.5.** Tomonlar o'zlarining mumkin bo'lgan noqonuniy xatti-harakatlari va ushbu Shartnomaning korrupsiyaga qarshi shartlarini buzganliklari Shartnomaning bekor qilinishiga olib kelishi mumkinligini tan olishadi.
- 9.6.** Tomonlar ushbu bitimning korrupsiyaga qarshi shartlarini amalga oshirishda to'liq maxfiylikni kafolatlaydilar.

10. MAXFIYLIK

- 10.1.** Korxona, Bank bilan teng ravishda Shartnoma bo'yicha ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash uchun javobgardir;
- 10.2.** Bank va Korxona tomonidan bir-biriga taqdim etilgan Shartnoma mavzusiga oid ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi.



- 10.3.** Tomonlar uchinchi shaxslar tomonidan olingan ma'lumotlarning oshkor qilinishini oldini olish uchun barcha zarur va etarli choralarni ko'radilar.

11. FORS-MAJOR

- 11.1.** Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar bu bajarmaganlik yoki qisman bajarilmaganlik, Shartnoma tuzilgandan keyin yuzaga kelgan hamda tomonlar mavjud choralar bilan uni bartaraf eta olmaydigan kechib bo'lmaydigan kuch (fors-major) natijasida yuzaga kelgan bo'lsa javobgarlikdan ozod qilinadi.
- 11.2.** Agar kechib bo'lmaydigan kuchlar holati vakolatli organlar tomonidan Qonunda belgilangan tartibda tasdiqlangan bo'lsa, ular fors-major holatlari deb hisoblanadi;

12. NIZOLARNI HAL QILISH

- 12.1.** Shartnoma taraflari tomonidan ijro etilish jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar tomonlar o'zaro maqbul echimni ishlab chiqish maqsadida oldindan ko'rib chiqadilar;
- 12.2.** Shartnoma bilan bog'liq nizo va kelishmovchiliklar muzokaralar o'tkazish yo'li bilan hal etilmasa, nizo O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq savdo-terminaliga mazkur shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatgan Bank filiali (alohida bo'linmasi) joylashgan hududdagi tegishli sudda ko'rib chiqiladi.

13. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

- 13.1.** Tomonlar Shartnoma shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishlari mumkin;
- 13.2.** Shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar ikkala tomon tomonidan imzolanganidan keyingina kuchga kiradi;
- 13.3.** Barcha ilovalar, qo'shimchalar va yo'riqnomalar Shartnomaning ajralmas qismlari hisoblanadi va bajarish uchun majburiydir;
- 13.4.** Kartalarga xizmat ko'rsatishga oid Tomonlar ilgari imzolagan barcha shartnomalar, ushbu Shartnoma tuzilgan paytdan e'tiboran haqiqiy emas deb hisoblanadi.

14. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

- 14.1.** Shartnoma imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va 3 kalendar yil muddatiga tuziladi. Agar shartnomaning amal qilish muddati tugagan bo'lsa, tomonlarning birortasi ushbu shartnomani bekor qilish niyatini bildirmagan bo'lsa, unda shartnoma kelgusi bir kalendar yilga uzaytirilgan hisoblanadi.
- 14.2.** Shartnoma quyidagi holatlarda bekor qilinishi mumkin:
- tomonlarning o'zaro yozma roziligi bilan;
 - tomonlardan biri ushbu shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda;
 - tomonlardan birining tashabbusi bilan, tugatilishidan kamida 5 kun oldin yozma ravishda ogohlantirish mavjud bo'lganda;

15. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

- 15.1.** Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikkita bir xil asl nusxada, har bir tomon uchun bittadan tuzilgan va imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi;
- 15.2.** Shartnomaga muvofiq yoki unga aloqador ravishda yuborilgan barcha bildirishnomalar va xabarlar yozma shaklda bo'lishi kerak va agar ular



ro'yxatdan o'tgan pochta orqali yuborilsa yoki Shartnoma taraflarining quyidagi yuridik manzillariga shaxsan o'zlari tomonidan tasdiqlangan holda etkazib berilsa, tegishli ravishda topshirilgan hisoblanadi;

15.3. Ushbu Shartnoma bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi;

15.4. Shartnomaning barcha qo'shimchalari uning ajralmas qismidir.

1 - Ilova – To'lov terminali uskunasi ro'yxatga olish uchun ariza

2 - Ilova – Korxona anketasi

3 - Ilova – Korxona anketasi

4 - Ilova – Uskunani qabul qilish – topshirish dalolatnomasi

5 - Ilova – Uskunani qaytarish dalolatnomasi

6 - Ilova – To'lovni qaytarish cheki (vaucher)

7 - Ilova – Savdo terminalini ishlatish va «UZCARD» so'mli bank kartasiga xizmat ko'rsatish bo'yicha Korxona va xodimlariga yo'riqnoma

8 - Ilova – KORXONA va xodimlar uchun yo'riqnoma savdo terminalidan foydalanish va "HUMO" so'm bank kartalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha

16. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

BANK

KORXONA

"Orient Finans" XATB

Amaliyot

boshqarmasi/ BXM/ BXO

STIR:

Manzil:

Bank rekvizitlari:

h/r:

MFO:

IFUT:

Boshliq /Boshqaruvchi

F.I.Sh.

STIR:

Manzil:

Bank rekvizitlari:

h/r:

MFO:

IFUT:

Direktor

F.I.Sh.

M.O'. Imzo

M.O'. Imzo

Savdo-terminaldan foydalanish to'g'risidagi
shartnomaga
1-sonli ilova.

**“Orient Finans” XATB****Amaliyot boshqarmasi / BXM / BXO ga**

_____ dan
(Korxona nomi)

**To'lov terminali uskunasi ro'yxatga olish uchun
ARIZA**

Sizdan _____ to'lov terminalini
(terminal rusumi i seriya raqami)
_____ nomiga, plastik kartalar orqali naqd pulsiz
(Korxona nomi)
hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ro'yxatdan o'tkazib berishingizni so'rayman.

Korxona manzili: _____

(o'rnatilgan joyi, tadbirkorlik sub'ektlari shuningdek faoliyat ko'rsatilayotgan joyini ham ko'rsatadilar)
«___» _____ 20__ y.

(Raxbar imzosi)

M.O'. (Bosh buxgalter imzosi)

BANKNING BELGILARI

To'lov terminalini ro'yxatga olish uchun hujjatlarni tekshirdim:

Bo'lim boshlig'i

(imzo)

Rahbar

(imzo)

Terminal ro'yxatga olingan sana: «___» _____ 20__ y.

Boshqa qaydlar: _____

To'lov terminali Korxonaga tegishli ekanligi to'g'risidagi hujjat



Savdo-terminaldan foydalanish to'g'risidagi
shartnomaga
2-сонли илова.

KORXONA ANKETASI**Korxona nomi:** _____**Bank rekvizitlari:****Asosiy hisobvaraqa:**

Bank nomi: _____

MFO: _____, Bank kodi: _____

h/r: 2 _____

Yig'ilgan terminal daromadlarini o'tkazish uchun hisobvaraqa:

Bank nomi: _____

MFO: _____, Bank kodi: _____

h/r: 2 _____

Yig'ilgan terminal daromadlarini o'tkazish uchun ikkilamchi hisobvaraqa:

Bank nomi: _____

MFO: _____, Bank kodi: _____

h/r: 2 _____

Yig'ilgan terminal daromadlarini o'tkazish uchun tranzit hisobvaraqa:

Bank nomi: «Orient Finans» XATB, _____

MFO: 01071, Bank kodi: _____

h/r: 235 _____

Korxona aloqa ma'lumotlari:

Telefon: +998 (____) ____ - ____ - ____

Bog'lanish uchun shaxs: _____

Faks: +998 (____) ____ - ____ - ____

Elektron pochta: _____

veb-sayt: _____

Terminal o'rnatish joyi haqida ma'lumotlar:

Manzil: _____

Orientir: _____

Telefon: +998 (____) ____ - ____ - ____

Ma'sul shaxs: _____

**Korxona
Rahbari**_____
M.O: (Imzo)YUqorida qayd etib o'tilgan
ma'lumotlar haqiqiyligini
tasdiqlayman

Savdo-terminaldan foydalanish to'g'risidagi
shartnomaga
3-сонли илова.

Korxona ANKETASI

Korxona nomi: _____
Yuridik manzili: _____
Orientir: _____
Rahbar F.I.Sh.: _____
Rahbarining aloqa raqami: _____
Buxgalter F.I.Sh.: _____
Buxgalter aloqa raqami: _____
Bank kartalari orqali olingan tushum
o'tkaziladigan bank hisob raqamining
rekvizitlari: _____
Faoliyati sohasi: _____
Agar Korxona bir nechta savdo shoxobchalariga yoki tovarlar/xizmatlar etkazib
beruvchilarga ega bo'lsa va xizmat ko'rsatish joylari shahar/tumanning turli qismlarida
joylashgan bo'lsa, iltimos, savdo Korxonalari (yoki savdo nuqtalari) haqidagi aloqa
ma'lumotlarini ko'rsating:

Korxona nomi (savdo shoxobchalari)	Aloqa raqami
_____	Manzil: Orientir: Aloqa raqami: Aloqa uchun shaxs F.I.SH.:
_____	Manzil: Orientir: Aloqa raqami: Aloqa uchun shaxs F.I.SH.:
_____	Manzil: Orientir: Aloqa raqami: Aloqa uchun shaxs F.I.SH.:

Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tasdiqlayman va yuqorida sanab
o'tilgan xodimlarni bank kartasi egalariga xizmat ko'rsatish uchun mas'ul shaxslar
sifatida tayinlayman

Korxona Rahbari



M.O'. (Imzo)

Korxona xodimlariga tushintirish ishlari olib borildi

«Orient Finans» XATBDan

F.I.SH. (Imzo)

Savdo-terminaldan foydalanish to'g'risidagi
shartnomaga
4-сонли илова.

**USKUNANI QABUL QILISH – TOPSHIRISH
DALOLATNOMASI**

_____ sh.

“___” _____ 20__ yil

“Orient Finans” XATB nomidan, _____ Amaliyot boshqarmasi/ BXM/ BXO
_____, _____ ,
va _____ nomidan, _____ , _____ , ushbu
“Uskunani qabul qilish – topshirish” dalolatnomasini, quyida keltirib o'tilgan uskunalar Bank
Vakili tomonidan **TAQDIM QILINGANLIGI**, Korxona Vakili esa **QABUL QILIB OLGANLIGI**
haqida tuzdilar:

No	Uskuna nomi	soni	Narxi har biri uchun (so'mda)	Inventar seriya raqami
1.	Terminal/ Pin Pad	_____	_____	_____
2.	Terminal/ Pin Pad	_____	_____	_____

Mulk taqdim qilish va qabul qilib olish jarayonida yaxshi holatda.

Aniqlangan kamchiliklar tabiati va sabablari haqida Vakillarning xulosasi: **kamchiliklar
aniqlanmadi.**

Taraflar haqiqatga mos kelmaydigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan dalolatnomani
imzolaganliklari uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirilganlar.

Dalolatnoma ikkita bir xil nusxada tuzildi.

Banka nomidan:
F.I.Sh.

Korxona nomidan:
F.I.Sh.

M.O'. Imzo

M.O'. Imzo

Savdo-terminaldan foydalanish to'g'risidagi
shartnomaga
5-сонли илова.

**USKUNANI QAYTARISH
DALOLATNOMASI**

_____ sh.

“___” _____ 20__ yil

“Orient Finans” XATB nomidan, _____ Amaliyot boshqarmasi/ BXM/ BXO
_____, _____ ,
va _____ nomidan, _____ , _____ , ushbu
“Uskunani qabul qilish – topshirish” dalolatnomasini, quyida keltirib o'tilgan uskunalar Korxona
Vakili tomonidan **TAQDIM QILINGANLIGI**, Bank Vakili esa **QABUL QILIB OLGANLIGI**
haqida tuzdilar:

№	Uskuna nomi	soni	Narxi har biri uchun (so'mda)	Inventar seriya raqami
3.	Terminal			
	_____	_____	_____	_____
4.	Pin Pad			
	_____	_____	_____	_____

Mulk taqdim qilish va qabul qilib olish jarayonida yaxshi holatda.

Aniqlangan kamchiliklar tabiati va sabablari haqida Vakillarning xulosasi: **kamchiliklar
aniqlanmadi.**

Taraflar haqiqatga mos kelmaydigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan dalolatnomani
imzolaganliklari uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirilganlar.

Dalolatnoma ikkita bir xil nusxada tuzildi.

Banka nomidan:
F.I.Sh.

Korxona nomidan:
F.I.Sh.

M.O'. Imzo

M.O'. Imzo



Savdo-terminaldan foydalanish to'g'risidagi
shartnomaga
6-сонли илова.

(Namuna)

_____ sh.

«____» _____ 20__ y.

TO'LOVNI QAYTARISH CHEKI (VAUCHER)

(Korxona va uning savdo nuqtasining nomi, hokimlik va soliq inspeksiyasidagi ro'yxatdan o'tish raqami)

1.	Karta orqali to'langan tovar/ xizmatning nomi	
2.	Karta egasi F.I.Sh.	
3.	Tranzaksiya summasi (raqamlar bilan)	
4.	Tranzaksiya summasi (harflar bilan)	
5.	Tovar/xizmatni qaytarish sababi	
6.	Karta egasining bankining nomeri va kodi	
7.	Korxona va uning savdo nuqtasining rekvizitlari: <u>Manzil</u> : pochta indeksi, viloyat, tuman/shahar, ko'cha, uy, xona <u>Bank</u> hisob raqami, kodi, bankning nomi va manzili va h.k.	

Tovar/xizmatni qaytardi: _____

Karta egasining ma'lumotlari:

F.I.Sh.

Imzo

Shaxsni tasdiqlovchi

hujjatning ma'lumotlari:

«____» _____ 20__ y.

Tovar/xizmatni qabul qildi: _____

Korxona Rahbari:

F.I.Sh.

M.O'.

Imzo

Savdo-terminaldan foydalanish to'g'risidagi
shartnomaga
7-сонли илова.

SAVDO TERMINALINI ISHLATISH VA «Uzcard» SO'MLI BANK KARTASIGA XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA KORXONA VA XODIMLARIGA YO'RIQNOMA

Ushbu Yo'riqnoma KORXONA xodimlari uchun amal qilish va bajarishi uchun majburiydir.

Mijoz Kartasi va Korxona haqida umumiy ma'lumotlar

Kartaning old tomonida quyidagilar mavjud:

- Yuqori qismida Bank nomi va logotipi.
- Chap tomonda, Kartaning ishlashini ta'minlaydigan mikroprotessor - "chip".

• "Chip" ostida quyidagi ma'lumotlar mavjud: kartaning maxsus (unikal) raqami (*Smart Vista* tizimidagi bank kartalari uchun 16 ta raqamdan iborat), kartaning amal qilish muddati, egasining davlat tilidagi familiyasi, ismi, otasining ismi, KORXONANING nomi (korporativ karta uchun).

Kartaning orqa tomonida quyidagilar mavjud:

- Yuqori qismida Karta bankning mulki ekanligi va topilganida kartani bankka ko'rsatilgan manzilga taqdim etish zarurligi to'g'risida matnli xabar keltirilgan.

• Kartalar bilan bog'liq masalalar bo'yicha Bank Bosh ofisining aloqa telefonlari va manzili.

Kartaga va hisob raqamiga, undagi mablag'larga ruxsatsiz kirishdan (ishlatishdan) himoya qilish uchun mo'ljallangan shaxsiy identifikator parollarini (PIN-kodlarini) o'rnatish imkoniyatiga mavjud.

PIN	Shaxsiy identifikatsiya raqami (to'rtta raqam) - shaxsan va maxfiy ravishda egasining o'zi yoki uning vakolatli vakili tomonidan (tayinlangan)/qayta o'rnatilgan (tayinlangan) va ular tomonidan Karta orqali amalga oshirilgan quyidagi moliyaviy va axborot operatsiyalarining qonuniyligini tasdiqlash uchun mo'ljallangan: - tovarlar va xizmatlar uchun to'lov. - Kommunal xizmatlarni to'lash. - naqd pulni bankomat, kassa terminali, kassir-nazoratchining avtomatlashtirilgan ish joyi va boshqalar orqali qabul qilish. - Karta qoldig'i haqida ma'lumot olish. - Kartadan oxirgi 20/30 marta amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida ma'lumot olish.
------------	--

Smart Vista (onlayn operatsiyalar)

Smart Vista tizimining bank kartalari uchun yuklab olish operatsiyasini amalga oshirishning hojati yo'q, chunki mablag'larning to'g'ridan-to'g'ri hisobdan chiqarilishi to'g'ridan-to'g'ri Yagona Umumrespublika Protssessing Markazi (bundan buyon matnda YUPM deb ataladi) ma'lumotlar bazasiga ulanadi, bu esa mijozning bank kartasidagi barcha mablag'lari harakati bevosita aks etadi.

YUPM va Avtomatlashtirilgan Bank tizimi (keyingi o'rinlarda ABT) ma'lumotlar

bazasida savdo orqali o'tadigan pul oqimlarini sinxronlashtirish uchun har kuni NATIJALARNI SOLISH TIRISH (SVERKA ITOGOV) operatsiyasini amalga oshirish kerak. NATIJALARNI SOLISH TIRISH ma'lumotlari asosida bank KORXONA bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

SAVDO TERMINALIGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA KARTA EGALARI BILAN ISHLASH

Uskunalar (Savdo terminali) - bu Korxona bilan Mijoz o'rtasida kartalar orqali Tranzaksiyalarni amalga oshirishga imkon beruvchi ixcham qurilma.

Savdo terminaliga tarkibiga quyidagilar kiradi: bosib chiqarish moslamasi, savdo va mijozlar rider, quvvat manbai, o'rnatilgan modem, displey va raqamli va funktsional tugmachalari bo'lgan klaviatura.

Displey yonidagi funktsional tugmalar terminal displeyidagi menyu elementlarini tanlash uchun ishlatiladi.

Yashil, qizil, sariq ranglarga bo'yalgan va raqamli tugmalar yonida joylashgan funktsional tugmalar operatsiyalarni va kiritilgan qiymatlar(summalar)ni terish/yoqish/o'chirish/to'g'rilash uchun ishlatiladi (operatsiya summolari, PIN kodlar).

Savdo terminali menyusi - bu tegishli funktsiya tugmachalarini bosish orqali faollashtirilishi yoki kiritilishi mumkin bo'lgan Savdo terminali displeyida ko'rsatilgan narsalar. Har bir menyu punkti Savdo terminalida bajariladigan operatsiyalar yoki funktsiyalar turlaridan biriga mos keladigan so'z yoki iboradir. Savdo terminali displeyida ushbu menyu elementlari bitta yoki ikkita qatorda joylashgan.

Asosiy menyu bu birinchi bo'lib Savdo Terminali yoqilgandan so'ng ekranda paydo bo'ladigan birinchi darajali menyu: EMV - Smart Vista bank kartalari bilan ishlash menyusi.

Tegishli funktsional tugmalar menyu ichidagi elementlar bo'ylab harakatlanish uchun ishlatiladi. Joriy menyudan oldingi menyuga chiqish uchun qizil funktsiya tugmachasidan foydalaning.

SMART VISTA TIZIMIDA BANK KARTALARI BO'YICHA TO'LOV TERMINALINING OPERATSIYALARINING NATIJALARINI SOLISH TIRISHDA, KORXONA XODIMLARINING HARAKATLARI TARTIBI.

Onlayn savdo operatsiyalari bekor qilinishini oldini olish uchun har kuni To'lov Terminalida natijalarni solishtirish operatsiyasini amalga oshirish kerak.

Savdo terminalini ishlaydigan shahar telefon liniyasi ulangan telefon rozetkasiga yoki Internetga (shu jumladan SIM-kartaga) ulang.

Agar KORXONA XODIMLARI Tranzaksiyalar soni va paketning umumiy miqdori to'g'risida ishonch hosil qilmasa, Savdo Terminalida "EMV" menyu punkti - "NATIJALARINI SOLISH TIRISH"(sverka itogov)ni tanlang va To'lov Terminali xotirasida saqlangan moliyaviy buxgalteriya hujjatlari bilan birga kerakli ma'lumotlarni oling.

So'ngra Savdo terminali ekranida "EMV" - "NATIJALARINI SOLISH TIRISH" menyusini tanlang. So'ngra To'lov Terminali modemini YUPM modemiga ulanishga terish boshlanadi (yoki Internetga ulanish turiga qarab YUPM serveriga ulanish).

Savdo terminali natijalarini solishtirish muvaffaqiyatli amalga oshirilgandan so'ng, To'lov terminali displeyida tegishli xabar paydo bo'ladi va inkasatsiya kvitansiyasi chop etiladi, unda quyidagilar ko'rsatiladi: natijalarni solishtirish paketining yig'indisi, natijalarni solishtirish sanasi/vaqt, To'lov terminali va savdo nuqtasi raqami, inkassatsiya paketidagi Tranzaksiyalar soni va natijalarni solishtirish (sverka itogov)dagi boshqa ma'lumotlar. Savdo kartasidagi natijalarini solishtirish bo'yicha barcha cheklar KORXONA tomonidan moliyaviy hisob hujjatlari bilan birga saqlanishi kerak.

Agar Xodimlarga To'lov Terminali operatsiyalarining tasdiqlangan ro'yxatini olish kerak bo'lsa, lekin biron sababga ko'ra To'lov Terminali operatsiyalar ro'yxatini chiqarmagan yoki uni noqonuniy ravishda bosib chiqargan bo'lsa, u holda xodimlar yana operatsiyalar ro'yxatini chop etishga harakat qilishlari kerak. Agar siz operatsiyalar ro'yxatini qayta chop etishga urinib ko'rsangizu, u yana muvaffaqiyatsiz bo'lsa, unda ishlashni davom ettirish uchun hech qanday holatda To'lov Terminali xotirasidagi operatsiyalar ro'yxatini o'chirib tashlamang, yaxshisi To'lov Terminalini BANKga olib keling.

"TO'LOV" OPERATSIYASI

Mijoz mahsulot/xizmat uchun to'lovni amalga oshirish uchun Kartani chakana savdo do'konining xodimlariga taqdim etadi.

Savdo terminali avtomatik ravishda bank kartasiga (Smart Vista) tegishli ekanligini tan oladi.

Xodimlar To'lov Terminali klaviaturasida tovar/xizmatlar narxini yozadilar va ko'chma masofadagi klaviaturani Karta egasiga beradilar, bunda, mijoz To'lov terminalidagi yozilgan (egasiga qulaylik uchun) to'lov miqdorini ko'rib chiqish va keyinchalik uni tasdiqlash/rad etish uchun tanishib chiqadi.

Agar karta egasi qizil tugmasi bosib to'lovni rad etsa, to'lov operatsiyasi bekor qilinadi, kartadagi mablag debetlanmaydi (chiqim qilinmaydi) va shunga muvofiq KORXONA savdo kartasiga o'tkazilmaydi, xodimlar tomonidan karta egasiga qaytarib beriladi va tovar/xizmat mijozga berilmaydi – bunda Tranzaksiya amalga oshirilmagan deb hisoblanadi.

Smart Vista tizimining bank kartalari orqali (onlayn operatsiyalar)

Smart Vista tizimidagi bank kartalari bilan har qanday operatsiyalarni amalga oshirish uchun To'lov terminalini shahar telefon liniyasiga yoki Internetga (SIM-karta), shu jumladan "To'lov" operatsiyasini ulash, tanlash lozim.

Tranzaksiya summasining egasi tasdiqlaganidan (yashil tugmani bosgan holda) va PIN-kodni terminalga kiritgandan so'ng, To'lov terminalini shahar telefon liniyasi yoki Internet orqali YUPM ma'lumotlar bazasiga ulab, muvaffaqiyatli yakunlanganidan so'ng, Savdo Terminali "TASDIQLANDI" (odobreno) deb yozilgan chek chiqaradi, agar operatsiya kvitansiyasi "RAD ETILDI" (otkazano) belgisi bilan bosilgan bo'lsa, unda Tranzaksiya muvaffaqiyatsiz deb hisoblanadi va To'lov operatsiyasi amalga oshmagan bo'ladi, bu holda siz kvitansiya(chek)dagi yoki terminalda ko'rsatiladigan xato kodiga e'tibor berishingiz kerak.

Agar biron-bir sababga ko'ra karta egasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan muddatlarda, savdo bitimi (to'lovi) allaqachon to'lov terminalida muvaffaqiyatli yakunlangan bo'lsa hamda tovarlarni qaytarib berishga qaror qilsa, u holda xodimlar to'lovni qaytarib berishlari kerak. Bunda, Bank tomonidan belgilangan shaklga muvofiq, xodimlar to'lovni qaytarish uchun chekni va uning barcha qatorlarini majburiy to'ldirilishini bilan tekshiring. To'lovni qaytarib berish chekida tovarlarning nomi, Tranzaksiya summasi, qaytarib berish sababi, Karta egasining va KORXONAning rekvizitlari va Tranzaksiya amalga oshirilgan savdo shaxobchasi ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Qaytarish cheki uch nusxada to'ldiriladi, bittasi: karta egasi, KORXONA va BANK uchun va karta egasi va KORXONA vakili tomonidan imzolanadi. KORXONA tomonidan To'lovni qaytarish cheki muhr/shtamp bilan tasdiqlanadi. To'lovni qaytarib berishni tekshirish asosida BANK, agar tegishli operatsiya BANKning naqd pulsiz hisob-kitob tizimida muvaffaqiyatli to'langan bo'lsa va unga "Kechiktirilgan operatsiya", "Tekshirish uchun Tranzaksiya", "Mos kelmaydigan Tranzaksiya" yoki boshqa maqom berilmagan bo'lsa, Tranzaksiyani qayta ishlashga imkon bermaydigan

holatlar va agar Tranzatsiya amalga oshirilayotganda Karta STOP-listda ko'rsatilmagan bo'lsa, shuningdek Tizimdagi Kritik Vaziyat davrida Tranzaksiya tugallanmagan bo'lsa, mablag'ni KORXONA hisobvarag'idan karta egasining hisobvarag'iga qaytaradi, bunda summa BANK tizimida qabul qilingan Tranzaksiya summasi miqdorida, lekin qaytarib berish chekida ko'rsatilgan miqdordan oshmasligi kerak.

Bundan tashqari, To'lov terminalida quyidagi xizmat operatsiyalari bajarilishi mumkin:

- Karta qoldig'i to'g'risidagi ma'lumotlarni chop etish yoki terminal displeyida ushbu ma'lumotlarni ko'rsatish.

- Kartada amalga oshirilgan oxirgi 20/30 operatsiyalar ro'yxati, ushbu operatsiyalarning sanasi va miqdori ko'rsatilgan holda chop etish.

- Kartaning PIN-kodlarini o'zgartirish.

To'lov terminalida operatsiyalarni bajarishda siz uning displeyida paydo bo'lgan xabarlarni diqqat bilan o'qishingiz va ularning ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilishingiz kerak. To'lov terminalining displeyida ko'rsatiladigan menyu va xabarlar foydalanuvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak. O'z xatti-harakatlarining to'g'riligida muammolar yuzaga kelgan taqdirda, BANK KORXONA shoxobchasi xodimlariga BANK xodimlari bilan bog'lanishni va yuzaga kelgan masala bo'yicha ulardan maslahat so'rashni qat'iy tavsiya qiladi.

To'lov terminalining ish sharoitlari, shunga o'xshash uskunalarining ishlash sharoitlariga mos kelishi hamda kassa mashinalarining ishlash sharoitlaridan yomon bo'lmasligi kerak.

To'liq ishlaydigan statsionar terminallar 220 volt 50 gertsli asosiy elektr tarmog'idan quvvat oladi.

To'lov terminalini namligi va changligi yuqori bo'lgan xonada ishlatish qat'iyan man etiladi, aks holda To'lov terminali buzilishi mumkin.

To'lov terminali bilan ishlash qoidalari, xuddi shunday elektron qurilmalar sinfiga tegishli bo'lganlardan tashqari, KORXONA xodimlarining qat'iyon bajarishi kerak bo'lgan boshqa talablarni o'z ichiga oladi, ya'ni:

- To'lov terminaliga sezilarli mexanik kuchlarni qo'llamang.

- To'lov terminalini ishlamay qolishiga olib kelishi mumkin bo'lgan kimyoviy, haroratli va boshqa turdagi ta'sirlardan asrang, shu jumladan o'rnatilgan dasturlarga tegmang.

- To'lov terminalini va bankdan olingan boshqa uskunalarini demontaj qilmaslik, ta'mirlamaslik yoki uchinchi shaxslarga bermaslik kerak.

- biron-bir maqsad bilan To'lov terminalining dasturiy ta'minotini buzishga urinmang.

- To'lov terminalini maishiy yoritgichlardan tashqari to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari va boshqa nurlanishdan himoya qiling.

- Karta bilan Tranzaksiya/operatsiya amalga oshirilayotgan vaqtida Kartani To'lov terminalining tegishli rideridan olib tashlamang (va Egasini ham bunday qilmasligiga ishonch hosil qiling). Amaldagi Tranzaksiya/operatsiya tugashini kutish kerak va shundan so'ng Kartani riderdan olish kerak.

- To'lov terminalini nosoz elektr rozetkalari va telefon liniyalariga ulamang.

- operatsiyadan oldin, KORXONA xodimlari terminal printerida qog'oz etarli miqdorda ekanligiga va To'lov terminali chop etishga tayyorligiga ishonch hosil qilishlari kerak.

- operatsiya paytida To'lov Terminalini elektr tarmog'idan va telefon liniyasidan/Internet/SIM-karta tarmog'idan uzamang (agar Bank/YUPM bilan bog'lanishni talab qiladigan operatsiyalar bajarilsa).

- To'lov terminali tomonidan operatsiya yoki operatsiyalar ro'yxati tekshiruvi chop etilganda, To'lov terminalining klaviaturasidagi tegishli tugmalarni bosmang va

bosilgan chekni yoki ro'yxatni majburan tortib olmang.

- ilgari BANK vakillari tomonidan To'lov terminali bilan ishlash uchun o'qitilgan KORXONA Xodimlari o'zgargan taqdirda, KORXONA yangi Xodimlarni sobiq Xodimlari yoki BANK vakili tomonidan tegishli tartibda o'rgatishlarini ta'minlashi shart.

- To'lov terminaliga begona narsalarni tegishiga yo'l qo'ymang, bu To'lov Terminali, uning alohida qismlari va /yoki mijoz kartasini ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

To'lov terminali va BANKdan olingan boshqa uskunalar bilan ishlash uchun faqat BANK vakili tomonidan o'qitilgan/o'rgatilgan va KORXONANING ushbu yo'riqnomasi bilan imzo chekib tanishgan KORXONA xodimlariga ruxsat beriladi. To'lov terminali bilan ishlashga tayinlangan KORXONA xodimlari ushbu SHartnomaga muvofiq ilovadagi shaklda KORXONA va BANK tomonidan yozma ravishda tasdiqlanadi.

«Uzcard» TIZIMIDA XAVFSIZLIK ISHLARI

«Uzcard» tizimining xavfsizlik darajasi buzilishining oldini olish uchun KORXONA Xodimlar tomonidan quyidagi qoidalarining bajarilishini ta'minlashi va nazorat qilishi shart:

- KORXONA To'lov terminalida solishtirish natijalari(sverka itogov)ni har kuni amalga oshiradi va cheki saqlanadi.

- BANKdan qabul qilingan To'lov terminali va boshqa jihozlar(uskunalar)ni yo'qotish, ishlash qobiliyatini yo'qotish va ularni boshqa shaxslarga taqdim etmaslikni ta'minlaydi.

- Qoidalarga qat'iy rioya qiling; To'lov Terminali bilan ishlash; karta egasiga xizmat ko'rsatish; foydalanish va xavfsizlik.

- Agar kerak bo'lsa, karta bilan operatsiyalarni amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan karta egalari yordam bering.

- Korxonaning ko'rinarli joylarida va mijozlarga xizmat ko'rsatish zonasida joylashtirilgan "Uzcard" va BANK axborot-reklama materiallarini o'z vaqtida yangilashni ta'minlash.

- BANKdan olingan To'lov terminalining va boshqa jihozlarning buzilishi va/yoki yo'qolishi to'g'risidagi barcha faktlar to'g'risida BANKni o'z vaqtida xabardor qilish.

- Karta egasidan uning PIN-kodini so'ramang.

- Agar «Orient Finans» XATB Karta egasida KORXONA To'lov terminalida operatsiyalarni bajarishda muammolar yuzaga kelsa, KORXONA Xodimlari ushbu mijozga ularni hal qilishda yordam berishga majburdirlar va agar ularning o'zlari masalani hal qilishni iloji bo'lmasa, kerakli maslahat olish uchun xodimlar zudlik bilan BANK xodimlariga murojaat qilishlari kerak.

- Korxonaning To'lov terminalidan amalga oshirilgan Tranzaksiyalar bo'yicha cheklarni mijoz tomonidan saqlanishi zarurligi to'g'risida uni xabardor qiling.

- Korxonaning To'lov terminali cheklarini nazorat qiling: Karta bilan operatsiyalar, To'lov terminali natijalarini taqqoslash (sverka itogov), To'lov terminali operatsiyalari ro'yxati.

- CHEkni saqlang: Kartalar bilan operatsiyalar, To'lov Terminalining natijalarini taqqoslash, KORXONAning moliyaviy buxgalteriya hujjatlari bilan bir qatorda To'lov Terminalining operatsiyalari ro'yxatlari.

- Savdo terminali stop-list ro'yxatiga kiritilgan deb bilgan kartalarni olib qoling.

- KORXONA xodimlari Kartalar bilan bunday firibgarlik harakatlarining barcha faktlari to'g'risida BANKni zudlik bilan xabardor qilishlari kerak.

- KORXONA xodimlari, Egasi tomonidan karta orqali to'langan tovarlar/xizmatlar qaytarib berilganda, naqd pul bilan qaytarib bermaydilar, buning uchun BANK bilan ushbu SHartnomaning shartlariga muvofiq to'lovni qaytarib berish chekini rasmiylashtiriladi.

- Karta bilan to'lov amalga oshirilganda tovar/xizmatlar narxini oshirmang.
- Savdo terminali tomonidan Tranzaksiyalar tushumlari, inkassatsiya va operatsiyalar ro'yxati chop etilishini nazorat qiling, sifatsiz bosilgan taqdirda darhol savdo terminalini diagnostika qilish va ta'mirlash uchun BANKga taqdim eting.

SMART VISTA BANK KARTALARI BILAN TO'LOVLARNI QABUL QILISHDAGI KO'P UCHRAYDIGAN XATOLAR

- 116 - mablag' etarli emas
- 117 – noto'g'i PIN
- 206 - PIN-kod bloklangan
- 005 - PIN-kod terishda limitdan ortiqcha amalga oshirilgan
- 111 - kartaning PIN-kodini o'rnatish kerak
- 5014 - 1z3 kalitlarni almashtirish (smen klyuchey) operatsiyasini amalga oshirish kerak

«Orient Finans» XATB yagona aloqa markazining telefon raqami + 998 71 200 88 99

Savdo-terminaldan foydalanish to'g'risidagi
shartnomaga
8-сонли илова.

**KORXONA VA XODIMLAR UCHUN YO'RIQNOMA
SAVDO TERMINALIDAN FOYDALANISH VA "HUMO" SO'M BANK
KARTALARIGA XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA**

YO'RIQNOMA

Terminal uchun parametrlar va kalitlarni yuklash
Ingenico Move 2500 / Desk 3500




Yashil tugmani bosib terminalni yoqing, ekranga "Kartani kiriting" yozuvi chiqqandan so'ng kartani joylashtiring.

1. SIM karta orqali ulanish sozlamalari


Ulanish parametrlarini kiritish va APN-ni boshqarish uchun Sozlamalar menyusiga kirish kerak. Buning uchun **5-chi tugmani** va yuqoriga yo'naltirilgan **18-raqamli strelkali Telium manager** bandini bosing. So'ng **oq-qora** tugmani bosib, quyidagi yo'lni tanlang: Control panel --- Terminal settings --- Comm means --- Mobile Networks --- Parameters --- Slot1 --- APN -ENTER APN: xlgprs.net. Keyin barcha maydonlarni bo'sh qoldiramiz va terminalni { . va **Sariq** } tugmalarini bosib qayta ishga tushiramiz

2. SOZLAMALARNI YUKLASH

Terminalga **5-chi tugmasi** bosiladi va Sozlash menyusi ochiladi,



keyin pastga strelka bilan **6 – Sessiya TMS**-tanlaymiz




Enter-ni bosib

3- TELIUM NET – ni tanlaymiz




IP manzilni kiritamiz:

217.029.126.132




Portni kiritamiz:


5100



SSL ishlatish: **0-Yo'q** tanlanadi



SN ishlatish: **1- Yo'q** tanlanadi




TMS ID: 12 xonali raqamni (uni o'z ABSingizdan olishingiz mumkin) kiritib, Enter tugmasini bosib



SHundan so'ng terminal xostdan parametrlarni yuklaydi va qaytadan ishga tushadi.


3. KALITLARNI YUKLASH

Terminalda **5-tugmani** bosganingizda, Sozlamalar menyusiga kirish uchun parol so'raladi




Parolni kiritamiz: **1015143**


0 - Pin-padni tanlaymiz



Keyin **0 - To'lov kalitlari** tanlanadi



Keyingi bosqichda **0 - Kalitlar so'rovi** tanlanadi



Kalitlar so'ralgandan so'ng

Ekranida BARCHA TERMINALLAR "ha" yoki "yo'q" deb so'raydi

"ha" ni tanlab, terminal xost bilan bog'lanadi va kalitlarni yuklaydi.

Terminal to'liq ishga tayyor hisoblanadi.